

## KOREYS TILIDA YASAMA FE'LLAR VA FE'L YASALISH XUSUSIYATLARI TASNIFI

**Kamalova Shirin**

*Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti o'qituvchisi*

### ARTICLE INFO.

#### **Kalit so'zlar:**

Yasama fe'llar, qo'shma fe'llar  
mustaqil fe'l, yordamchi fe'llar, fe'l  
yasovchi suffikslar, prefikslar fe'llar,  
affiksatsiya, kompozitsiya.

### Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola o'zbek va koreys tillaridagi yasama fe'llar va ularning yasalish usullari, fe'l yasovchi qo'shimchalar o'rganilib, ularning chet tillarni o'qitishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Til tizimida so'z yasalishi masalasi muhim o'rin tutadi. Til taraqqiyotining barcha davrlarida ham tilshunoslar so'z yasalishi masalasini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratishgan. Koreys tilshunosligida esa so'z yasalishi masalasi alohida so'z turkumi doirasida emas, umumiy olib qaralgan, ya'ni koreys tilida so'z yasalishi masalasi ot yasalishi, fe'l yasalishi nomi ostida tasniflanib o'rganilmasdan qo'shma so'zlar, yasama so'zlar, shuningdek, preffikslar, suffikslar nomi ostida hamma so'z turkumlarini umumiy lashtirib o'rganilgan. O'zbek va koreys tillarida fe'l 2 xil yo'l bilan yasaladi: 1) Morfologik yo'l bilan (affiksatsiya); 2) Sintaktik yo'l bilan (kompozitsiya, so'z qo'shish). Bularning ikkalasi ham so'z yasashning faol yo'llaridir. 길 가는 사람을 친구로 헛보았다[3,189]. *Yo'lda ketayotgan odam do'stinga o'xshab ko'rindi.* So'zlarni qo'shish orqali esa o'zbek tilida qo'shma va juft fe'llar hosil qilinsa, koreys tilida esa qo'shma fe'llargina hosil qilinadi. Koreys tilida juft fe'llarning yasalishi so'z yasalish turiga mansub emas. "Aytmoqchi, *dada, Germaniya elchixonasidan yana qo'ng'iroq qilishdi, dedi Hilola guruchni yuva turib.*[2,450]" Demak, o'zbek tilida fe'llar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma fe'l nomlari bilan ikki turga bo'linadi. Sodda fe'llarning o'zi ikki xil bo'ladi: tub fe'llar va yasama fe'llar. Tub fe'llar bugungi kunda morfologik qismlarga ajralmaydigan fe'llar bo'lib, yasama fe'llar esa affikslar orqali hosil qilingan fe'llar hisoblanadi. Koreys tilida esa so'z uni tashkil etuvchi morfemalarning bir yoki birdan ortiq ekanligiga qarab, tub so'z (단일어) hamda murakkab so'z (복합어) ga bo'linadi. Murakkab so'z ham o'z navbatida ikki – yasama so'z (파생어) va qo'shma so'z (합성어) ga ajraladi. Ba'zi adabiyotlarda murakkab so'z (복합어) qo'shma so'z (합성어) terminlari aksincha birining o'rniga biri qo'llanganini ko'rish mumkin, ammo bu holat uning so'z yasash xususiyatiga ta'sir ko'rsatmay, faqatgina terminning so'z sifatidagi qo'llanish doirasidagi farq bilangina cheklanad.[6,144] Bitta asosdan iborat bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga ajralmaydigan fe'llar tub fe'l (단일동사) deyiladi. 가다(*bormoq*), 먹다(*yemoq*), 하다(*qilmoq*).

Asos va fe'l yasovchi qo'shimchani qo'shilishidan hosil bo'lgan va ma'noli qismlarga ajraladigan fe'llar yasama fe'l (파생동사) deyiladi. 치뜨다 (*ko'zni tepaga ochmoq*), 짓밟다 (*ezg'ilamoq*) kabi. Koreys tilida fe'l yasalishining mazkur usuli, o'z navbatida ikki turga bo'linadi: **1.** 접두사 + 어간 (preffiks + asos); **2.** 어간 + 접미사 (asos + suffiks)

Ikki asosning qo'shilishidan hosil bo'lgan fe'llar qo'shma fe'llar (합성동사) deyiladi. Masalan: 들어가다(*kirib bormoq*), 덧붙다 (*qo'shimcha qilmoq*) kabi. O'zbek tilida preffikslar, ya'ni old qo'shimchalar yordamida fe'llar yasalmaydi. O'zbek tilida affiksatsiya usuli bilan yasaladigan fe'llar faqatgina asosdan so'ng qo'shiluvchi qo'shimchalar, ya'ni suffikslar yordamida hosil qilinadi. Shuning uchun mazkur bandda faqat koreys tilida preffikslar orqali fe'l yasalishi usuli ko'rib chiqiladi. Koreys tilida fe'l yasovchi qo'shimchani asosning old qismiga qo'shib, undan yangi fe'l hosil qilish hodisasi 접두어생법 ("preffiks orqali fe'l yasash qoidasi") deyiladi, mazkur old qo'shimchaesa 접두사 (preffiks)deb ataladi. Koreys tilida preffikslarning suffikslardan quyidagi farqli jihatlari mavjud: Birinchidan, preffikslar suffikslarga nisbatan nomahsul hisoblanadi. Ular orqali yasaladigan so'zlar juda oz miqdorni tashkil qiladi. Bunga sabab har bir preffiks qo'shila olishi mumkin bo'lgan asoslar chegaralangandir. Ikkinchidan, preffikslar faqatgina o'zi qo'shilgan so'z turkumi doirasidagina yangi so'z yasaydi, boshqa so'z turkumlariga qo'shib, yangi so'z yasash hodisasi kuzatilmaydi. Demak, fe'l yasovchi preffikslarfe'ldan fe'l yasashi mumkin, boshqa so'z turkumlaridan esa fe'l yasash hodisasi kuzatilmaydi. Masalan: **Preffiks+fe'l** 빗맞다 (*chippakka chiqmoq*), 되새기다 (*qayta o'ylamoq*), 헛갈리다 (*aralashib ketmoq*) yasama fe'llarida fe'l asosiga 빗, 되, 헛 preffikslari qo'shib, yangi fe'l hosil bo'lgan bo'lsa ham bu yasalash shu so'z turkumi doirasida amalga oshgan, ya'ni fe'ldan fe'l yasalgan. Koreys tilida preffikslar orqali so'z yasalishining turkum doirasida amalga oshishining sababini Na Chxan Yon bu qo'shimchlarning so'zning old qismiga qo'shilishi bilan izohlab beradi.

Koreys tilida preffikslar orqali so'z yasash usuli, asosan, insonga hamda o'simlik va hayvonot olamiga ishora qiluvchi otlar doirasida keng qo'llaniladi. Bu usul orqali fe'l yasash nomahsul bo'lib, u orqali yasaladigan fe'llar kamchilikni tashkil etadi. Masalan: 갖 preffiksi nafaqat fe'l balki boshqa so'z turkumlariga ham qo'shib, yangi so'z yasashga xizmat qiladi. Mazkur preffiks "hozirgina, yangi" degan ma'nolarni anglatadi. 갓낳다 (*yaqinda ko'zi yorimoq*), 갓졸업하다 (*yaqinda bitirmoq*), 갓시집가다 (*yaqindagina turmushga chiqmoq*), 대학을 갓졸업해서 사회를 너무 몰라요. (*Institutni yaqindagina biritgani uchun hali jamiyat haqida to'liq tushunchaga ega emas*). 내 mazkur preffiks "tashqariga, kuch bilan" degan ma'nolarni anglatib, fe'lga qo'shib shunday ma'noli yangi fe'l yasashga xizmat qiladi. 내뛰다 (*kuch bilan yugurmoq*), 내받다(*kuch bilan olmoq*), 내뺨다(*tashqariga chiqarmoq*), 내치다(*quvib yubormoq*); "... 엄마는 마루의 밥상을 들어 마당에 내던졌다" *Onam yog'och stolni ko'tarib, hovliga kuch bilan otdi*. 되 preffiksi asosan fe'lga qo'shib, undan yangi so'z yasashga xizmat qiladi. Mazkur preffiks "qayta, yana, aksincha" degan ma'nolarni anglatadi: 되돌다 (*teskarisiga aylantirmoq*), 되돌아보다 (*qayta ko'rib chiqmoq*), 되묻다 (*qayta so'ramoq*), 되살다 (*qayta tirilmoq*), 되받다 (*qaytarib olmoq*), 되풀이하다 (*takrorlamoq*), 되씹다 (*chaynamoq, ezmalanmoq*), 되찾다 (*qayta topmoq*), 되돌아가다 (*qaytib bormoq*), 고등학교시절을되새겨보세요 (*Litseyda o'qib yurgan kezlaringizni eslab ko'ring*), "아버지에게 엄마와 같이 서울에 온 것이 사실이라고 되묻고 싶을 정도로 엄마는 흔적이 없었다" *Dadamdan onam bilan birga Seulga kelganingiz aniqmi deb yana so'rar darajada onam izsiz ketgan edi*. 뒤 mazkur preffiks asosan fe'lga qo'shib, yangi fe'l yasashga xizmat qiladi va turli ma'nolarni anglatadi: 1. "juda, qattiq": 뒤흔들다(*qattiq siltkimoq*), 뒤틀다(*aylantirmoq*), 뒤섞다(*aralashirmoq*), 뒤떠들다(*shovqin-suron qilmoq*). 2. "teskari, qarama-qarshi, orqa bilan": 뒤엎다(*teskarisiga opichmoq*), 뒤바꾸다(*teskarisiga almashtirmoq*), 뒤놓다(*teskarisiga qo'ymoq*) "그는 동사무소를 한번 올려다보고 뒤돌아섰다[5,99]" *U yana bir marta ko'rib chiqib orqasi bilan turdi*

3. "butunlay, boshdan-oyoq": 뒤덮다(*butunlay qoplanmoq*) 드- :Mazkur preffiks harakat darajasining kuchli, yuqori ekanligini anglatuvchi fe'l yasaydi. Masalan:

드솟다(*balandga ko'tarilmoq*), 드날리다(*balandga uchirmoq*). 들Mazkur preffiks "juda, qattiq" ma'noli yangi fe'l yasashga xizmat qiladi. Masalan: 들까부르다(*qattiq*

*silkitmoq*), 들피다(*uymalashmoq*), 들끓다(*qaynamoq*), 들떠들다(*shovqin-suron qilmoq*), 들볶다(*holjoniga qo'yimaslik*). **덧** preffiksi ham nafaqat fe'l balki boshqa so'z turkumlariga ham qo'shib, yangi so'z yasashga xizmat qiladi. Mazkur preffiks "qayta, ustidan" degan ma'nolarni anglatadi: 덧나다(*qayta chiqmoq*), 덧불다(*ustidan qo'yimoq*), 덧입다(*ustidan kiymoq*), 덧칠하다(*ustidan bo'yamoq*)

벽지가더러워져서그위에덧붙여야겠어요. *Gulqog'oz kir bo'lgani sababli ustidan yana yopishtirish kerak.*

Mazkur qo'shimchaga kengroq to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u nafaqat, fe'lga qo'shib yangi so'z yasaydi balki sifat, otga ham qo'shib, ulardan yangi so'zlar yasashga xizmat qiladi: 덧문(*qo'shimcha darvoza*) [4,47]. **맞** preffiksiasosan fe'lga qo'shib, undanyangi so'z yasashga xizmat qiladi. Mazkur preffiks "yuzma-yuz, ro'parama-ro'para, o'zaro" degan ma'nolarni anglatadi: 맞겨루다(*bellashmoq*), 맞먹다(*tenglashmoq*), 맞들다(*birga ko'tarmoq*), 맞바꾸다(*o'zaro almashmoq*), 맞서다(*qarmaqarshi turmoq*), 맞잡다(*hamkorlik qilmoq*), 맞대다(*teggizmoq*) 그 선물이 마음에 안 들면 맞바꿀까요? *Sovg'a yoqmagan bo'lsa o'zaro almashtiramizmi?* **빚** Mazkur preffiks "noto'g'ri" degan ma'noni anglatadi. 빚나가다(*haddan oshmoq*), 빚대다(*volg'on gapirmoq, aylantirib gapirmoq*) **얼** mazkur preffiks "noaniq, sal-pal" ma'nolarini anglatib, fe'ldan fe'l yasaydi. 얼버무리다(*noaniq gapirmoq*), **엇** "nomuvofiq" ma'nosini bildiradi. 엇나가다(), 엇대다

"엄마는 썬 문어를 도마에 올려놓고 칼로 썰어 보려고 했다. 그런데 여전히 칼이 엇나갔다[5,56]"

*Onam bug'lab pishirilgan sakkizoyoqni taxtakachga qo'yib to'g'ramoqchi bo'ldi. Lekin yana pichog noto'g'ri ketib qoldi.* **엇** preffiksi "bildirmay, asta" degan ma'nolarni bildiradi. Mazkur preffiks o'rta asr koreys lingvistikasida fe'l asosi bo'lgan bo'lib, bugungi kunda preffiks holiga kelgan. 엇보다(*mo'ralamoq*), 엇들다(*bildirmay eshitmoq, quloq tutmoq*). **짓** ushbu preffiks "qo'pol, kuchli, to'g'ri kelganicha" ma'nolarini bildiradi. 짓밟다(*ezg'ilamoq*), 짓쭈시다(*zirqiramoq*), 짓짱다(*qattiq urilmoq*); **쳐** ushbu preffiks "ko'p, to'g'ri kelganicha" ma'nolarini bildiradi. 쳐먹다(*ko'p yemoq*), 쳐넣다(*tiqmoq*), 죄인을 감옥에 쳐넣었어요 *Jinoyatchini qamoqqa tiqdim.*

"전날까지도 밥도 잘 쳐먹고 꼬리도 잘 흔들었는데 자는 듯이 죽어 있었어[5,63]. *Hatto kechagacha ovqatni ham ko'p yeb, dumini ham likillatib turgandi, uxlayapti deb o'ylasam, o'lib yotgan ekan.* **치** mazkur preffiks "tepa ko'tarilmoq" ma'nosini bildiradi. 치숫다(*tepaga ko'tarilmoq*), 치닫다(*kuch bilan yugurmoq*), 치밀다(*pastdan tepaga kuch bilan ko'tarilmoq*). "연기가 치솟는 걸 보고 옆집 사람이 이상하게 여겨 들여다보지 않았다면 집이 불타버렸을지도 모를 일이었다[5,66]. *Tutun tepaga ko'tarilib chiqayotganini ko'rgan qo'shni nima bo'ldikin deb chiqib qaramaganda uy yonib ketishi ham mumkin edi.* **헛** mazkur preffiks "xato, noto'g'ri" ma'nolarini bildiradi. 헛디디다(*oyoqni noto'g'ri bosmoq*), 헛보다(*noto'g'ri ko'rmoq*), **휘** ( 휘 ) juda, qattiq degan ma'nolarni bildiradi. 휘갈리다(*do'pposlamoq*), 휘감다, 휘날리다(*hilpiramoq*), 휘두르다, 휘젓다, 휘싸다, 휘쓸다. Koreys tilida so'z yasovchi qo'shimchalar ikki turli bo'lib, biri gap tarkibiga yoki so'z turkumiga ta'sir ko'rsatmay, unga yangi ma'no berish vazifasining bajaradigan "leksik qo'shimchalar"(어휘적 접사)dir. Ya'ni mazkur qo'shimchalar gap tarkibini ham o'zgartirmaydi, o'zi qo'shilayotganso'zning turkumlik xususiyatini ham saqlab qoladi. Ikkinchi tur qo'shimchalar esa gap tarkibini o'zgartiruvchi hamda so'zning so'z turkumlik xususiyatiga ham ta'sir ko'rsatuvchi "sintaktik qo'shimchalar"(통사적 접사) hisoblanadi. Prefikslar "leksik qo'shimchalar"sirasiga mansub bo'lgani sababli yuqorida keltirilgan misollarning hammasi o'zining yasovchi qo'shimcha qo'shilmasidan oldingi so'z turkumlilik xususiyatini saqlab qolgan.

O'zbek tilida fe'l yasovchi affikslar ot yasovchi va sifat yasovchilarga qaraganda anchagina oz miqdorda, ular 20 ta atrofida. Lekin oz miqdordagi bu affikslar yordamida juda ko'p miqdordagi fe'llar

yasaladi. Yasama fe'llarning asosiy qismini affiksatsiya usuli bilan yasalgan fe'llar tashkil etadi. Shu jihatdan fe'l yasalishining bu usuli mahsuldor sanaladi. Lekin shu affikslarning ham ko'pgina qismi hozirgi vaqtda yangi fe'llar yasalishida ishtirok etmaydi, ya'ni ular so'z yasash funksiyasini to'xtatgan[1,77]. Koreys tilida yuzlab suffikslar mavjud bo'lib, koreys tilida ular orqali so'z yasalishi o'zbek tilidagi singari mahsuldor usul sanaladi.[7,92] Koreys tilida fe'l yasovchi qo'shimchani asosdan so'ng qo'shib, undan yangi fe'l hosil qilish hodisasi "suffiksdan fe'l yasash qoidasi" (접미과생법) deyiladi. Fe'l yasashda ishtirok etgan mazkur qo'shimcha suffiks (접미사) deyiladi. Koreys tilida suffikslar fe'l, sifat, ot, ravish, taqlid so'z kabilarga qo'shib, ulardan yangi fe'l yasashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, suffikslar gapning sintaktik tarkibini o'zgartiradi va o'zi qo'shilayotgan so'zning avvalgi so'z turkumilik xususiyatini o'zgartirib, undan boshqa so'z turkumini yasaydi. Shuning uchun ham koreys tilida suffikslar "sintaktik qo'shimchalar" deb ham ataladi. Masalan,

1 a 호랑이가 토끼를 먹는다 *Yo'lbars quyonni yeydi*

b 토끼가 할아이에게 먹힌다 *Quyon yo'lbarsga yeyiladi*

2 a 아이가 밥을 먹는다 *Bola ovqat yeydi*

b 어머니가 아이에게 밥을 먹인다 [4,46] *Ona bolasiga ovqat yediradi*

1 va 2 misoldagi 먹히다 (*yeyilmoq*) va 먹이다 (*yedirmoq*) fe'llarining ikkalasi ham 먹다 (*yemoq*) fe'li asosiga 히 va 이 suffikslari qo'shib hosil bo'lgan yasama fe'llar hisoblanadi. Ikkala misolning birinchi gapida kelgan 먹다 fe'li ishtirok etib, mazkur gaplar **ega+vositali to'ldiruvchi+kesim** ko'rinishiga ega. Birinchi misolning ikkinchi gapida esa 먹히다 fe'li keltirilgan bo'lib, mazkur gapning sintaktik tuzilishi **ega+vositasiz to'ldiruvchi+kesim** ko'rinishiga ega. 먹이다 fe'li kesim vazifasida kelgan ikkinchi misolning sintaktik tuzilishi esa **ega+vos.siz to'ldiruvchi+vos'li to'ldiruvchi+kesim** ko'rinishiga ega. Demak, 히 va 이 suffikslari fe'l asosiga qo'shib, gapning sintaktik tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek va koreys tillarida affiksatsiya usuli orqali fe'l yasalishi o'zakning qaysi so'z turkumiga xosligiga qarab, 2 turga bo'linadi: 1) fe'l o'zaklaridan fe'l yasash (ichki yasalish), 2) fe'l bo'lmagan so'zlardan fe'l yasash (tashqi yasalish). O'zbek tilida fe'l yasovchi suffikslardan *-la, -lash, -lan, -lat, -lantir, -siz, -illa, -ira, -a, -a(y), -a(r), -sira, -i(k), -i, -t* kabilar mavjud bo'lib, bular orasida *-la* fe'l yasovchi eng faol suffiks hisoblanadi. Koreys tilida fe'l yasovchi suffikslardan esa *뜨리, 거리, 대, 만하다, -아/어하, 하, 되, 거리* kabilar mavjud. Bundan tashqari koreys tilida o'zbek tilidan farqli o'laroq nisbat yasovchi (orttirma va majhul nisbat) qo'shimchalar ham fe'l yasovchi suffikslar sifatida qaraladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. O'zbek tilida fe'l yasalishi. T.: O'qituvchi. 1989. 77 b.
2. Tohir Malik. Ustoz. Tanlangan asarlar. T: Sharq. 2011. 450b.
3. 김정수, 박동호, 이병규. 외국인을 위한 한국어 문법 1. 서울: 커뮤니케이션북스. 2005. 189 쪽
4. 나찬연. 학교 문법의 이해. 단어. 제이앤씨. 2007. 47쪽
5. 신경숙. 엄마를 부탁해. 창비. 2008. 50 쪽.
6. 임지룡, 이은규. 학교 문법과 문법 교육. 서울: 도서출판 박이정. 2005. 144쪽
7. 이익섭, 채완. 국어 문법론 강의. 서울. 2011. 92쪽